

### O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING TAKOMILLASHUVIDA ALISHER NAVOIYNING O'RNI

**Yo'ldosh Rahmatov,**

*filologiya fanlari doktori, O`zRFA O`zbek tili, adabiyoti va folklor inistituti, "ALFRAGANUS UNIVERSITY" nodavlat oliy ta'limmuassasi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada xalq tarixiy-adabiy jarayonda xalq maqollarining takomillashuvi va rivoji haqida so'z yuritiladi. Xalq maqollarining rivojlanishini tekshirish uchun muhim manba mumtoz adabiy yodgorliklar bo'lib, maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'ot-t-turk" asarida keltirilgan xalq maqollari va Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan maqollar muqoyasa qilinib va ularning evolyutsiyasi ochiqatlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *tarixiy-folkloriy jarayon, proporsiya, mumtoz adabiyot, evolyutsiya, maqol, folklorizm, takomillashuv.*

**Abstract.** *This article talks about the improvement and development of folk proverbs in the historical and literary process of the people. An important source for checking the development of folk proverbs are classical literary monuments. The article compares folk proverbs in the work of Mahmud Koshgari "Devoni Lugot-t-Turk" and proverbs used in the works of Alisher Navoi, and explains their evolution.*

**Key words:** *historical and folklore process, proportion, classical literature, evolution, proverb, folklorism, improvement.*

**Аннотация.** *В данной статье говорится о совершенствовании и развитии народных пословиц в историко-литературном процессе народа. Важным источником для проверки развития народных пословиц являются классические литературные памятники. В статье сравниваются народные пословицы в произведении Махмуда Кошгари «Девони лугот-т-тюрк» и пословицы, использованные в произведениях Алишера Навои, и поясняется их эволюция.*

**Ключевые слова:** *историко-фольклорный процесс, пропорция, классическая литература, эволюция, пословица, фольклоризм, совершенствование.*

Folklor janrlarining taraqqiyoti va ular orasidagi o'zaro munosabatlar tarixiy-folkloriy jarayonning dinamik qonuniyatlari asosida sodir bo'ladi. Og'zakilik, ommaviylik, an'anaviylik, muallif noma'lumligi, ko'pqatlamlilik, variantlilik, impravizatorlik va tarixiylik kabi xususiyatlar mohiyatida vaqt, zamon va makon mujassamki, bu og'zaki ijod namunalarining muayyan tarixiy sharoit, hayotiy turmush talablari bilan bog'liq holda kechishini dalillaydi. Bunday tarixiy jarayonda ijod namunalari o'zgarishi, yangilanishi, ko'payishi yoki aksincha, unutilishi, qisqarishi yoxud birlashishishi mumkin. Folklorshunos B.Sarimsoqov ta'kidlaganidek, "Folklor janrlarining o'zaro munosabati va ta'siri – tarixiy-folkloriy jarayon turli proporsiya hamda disporsiyalarga to'la bo'lib, ularning barchasini har birining o'ziga xosligini hisobga olgan holda ochish lozim. Buning uchun esa katta kuch hamda bir janrning evolyutsiyasi ustida jiddiy tadqiqot olib borishga to'g'ri

keladi”[6.98.]. To‘g‘ri, folklor janrlarining o‘zaro munosabati va ta’siri masalasini har bir janr evolyutsiyasi bilan bog‘liq holda o‘rganish maqsadga muvofiq.

Maqollar barcha xalqlarning og‘zaki ijodida asosiy o‘rinni egallovchi kichik janr sanaladi. Maqollar ixcham shakl, keng mazmunga egaligi bilan boshqa xalq ijodi namunalaridan ajralib turadi. Unda xalq dunyoqarashi bilan birga milliy tafakkur o‘z aksini topadi. Maqollar xalq tafakkurining falsafiy xulosasi sifatida uzoq tadrijiy jarayon hosilasi o‘laroq yuzaga keladi. Ular vaqt o‘tishi bilan ham shakliy, ham ma’noviy tomondan takomillasha boradi. Maqollar og‘zaki ijod namunasi bo‘lgani bois ularning evolyutsiyasini bevosita analiz qilishning iloji mavjud emas, shuning uchun maqollarning rivojlanishi va ma’noviy taraqqiyotini o‘rganishning eng maqbul yo‘li mumtoz adabiy yodgorliklar tarkibida singdirilgan maqollarni qiyosan o‘rganishdir. Qo‘limizda turkiy xalqlarning eng qadimiy maqollari saqlanib qolgan mukammal yodgorlik Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘ot-t-turk” asari hisoblanadi. Shu bois o‘zbek xalq maqollarini tadrijiy takomilini o‘rganishda devondagi maqollar va keyingi davrlarda yaratilgan mumtoz adabiyoti yodgorliklar tarkibiga kirgan maqollar muhim manbadir sanaladi.

Maqollar hamma zamonlarda ham o‘z tadrijiy rivojiga ega bo‘lgan. Maqollarning yashash tartibi og‘zaki bo‘lib, og‘izdan-og‘ziga o‘tish jarayonida turli variantlarga ega bo‘lishi mumkin, quyidagi maqol hududiy variantlashuv hosilasi o‘laroq paydo bo‘lgan. Odatda, maqollardagi variantlashuv ikki asosda sodir bo‘ladi: a) hudud bilan bog‘liq variantlashuv; b) davr o‘tishi bilan bog‘liq variantlashuv. Devonda qo‘llangan “Yïparliĝ kesürgüdin yïpar ketsä, yïqi qalir” va “Kizdäki kiz yïpar” maqollari hudud bilan bog‘liq variantlashuvdir. Olim o‘zi ta’kidlaganidek, turklar yashaydigan ko‘p o‘lkalarda bo‘lgani va ulardan maqollarni yozib olgani uchun devondan bir maqolning ikki ko‘rinishi o‘rin olgan. Maqollarning yangi variantlarining hosil bo‘lishida vaqtning ham ahamiyati katta.

Mazkur maqol keyingi davrlarda ham keng iste’molda bo‘lgan, jumladan, Alisher Navoiy davrida ham o‘z mavqeini yo‘qotman, biroq tadrijiy evolyutsiya natijasida maqol takomillashib borgan:

Chun masal bo‘ldi soching zulm ichra, yoshurmoq ne sud,  
Mushk isin yashursa bo‘lmas, bu masal mashhur erur[5.162].

Baytda qo‘llangan “Mushk isin yashursa bo‘lmas” maqoli biz yuqorida qayd etgan maqolning XV asrda qo‘llangan shakli sanaladi. Maqol yozma adabiyotga ko‘char ekan, u adabiyot qoidalariga bo‘yin egadi va asl shaklini saqlamaydi. Maqol badiiy asar tarkibida ijodkor maqsadidan kelib chiqib qo‘llanadi va bayt vazni hamda ohangiga moslashadi. Biroq maqolning mazmuniy mantig‘i saqlab qolinadi. Bois ijodkor maqol yordamida o‘zi aytayotgan fikrning qimmatini va asar badiiyatini oshiradi. Maqol XV asr jonli tilida ham keng qo‘llangan. Shu bois Alisher Navoiy

g'azalida mazkur maqolga nisbatan "bu masal mashhur" deydi. XI asrda qo'llangan "Kizdäki kiz yïpar" maqoli XV asrga kelib "Mushk isin yashursa bo'lmas" shakliga kelgan. Ko'rinadiki, maqol to'rt asr davomida grammatik tuzilish jihatdan bir komponentligini saqlab qolgan bo'lsa ham, gap qurilishi va leksik jihatdan farqlanadi. Bu hol maqolning shakliy evolyutsiyasini ko'rsatadi.

Maqollar doim ham dastlabki ifodalagan mazmunida qat'iy qolmaydi. Uning obrazli ifodasi qo'llanayotgan davr tafakkuriga ko'ra shu davrga moslashadi. Dastlabki mazmuniga qo'shimcha falsafiy mushohada qo'shiladi. "Kizdäki kiz yïpar" maqoli Mahmud Koshg'ariy izohiga ko'ra "Bu so'z xotinlar og'zining hidi mushkka o'xshatilgan vaqtda qo'llanadi" mazmunini bersa, Alisher Navoiy g'azalida o'zgacha mazmun kasb etadi:

Har qayon boqsam ko'zumga ul quyoshdin nur erur,  
Har sari qilsam nazar, ul oy manga manzur erur.  
Chun masal bo'ldi soching zulm ichra, yoshurmoq ne sud,  
Mushk isin yashursa bo'lmas, bu masal mashhur erur [5.162.].

G'azalda yorning go'zal tasviri bayon etilar ekan, avval uning jamoli quyoshga, yuzi oyga teshbeh qilingach, qora sochlari oshiq bag'rini o'rtaguvchi zolimga o'xshatiladi va maqol yuqoridagi fikrlarga hamohang tarzda bu go'zallik oldida oshiqning og'ir ahvolini yashirishning imkoni yo'qligi tasdiqlanadi. Ya'ni g'azalda maqolning boshqa bir mazmuni kashf etiladi. "chin oshiqlik savdosini yashirishning iloji yo'q" mazmunidagi fikr tug'iladi.

Maqol keyingi davrlarda ham o'z mavqeini yo'qotgan emas. "O'zbek xalq maqollari" to'plamida, uning ikki varianti qayd etiladi. "Ipor isi sandiqdan ketmas", "Ipor isini yashirib bo'lmas". Ko'rinadiki, maqol uzoq muddatli davriy evolyutsiya natijasida ixcham shakl va mukammal mazmunga ega bo'lgan. Maqollar bugungi kunda "qilingan xayrli va yaxshi ish aslo unutilmaydi" va "yaxshilik yoki himmatni el orasida yashirib bo'lmaydi" kabi mazmunlarda qo'llanib kelinadi.

Yozma adabiyotda qo'llangan maqollar kuzatilsa, ularning ikki jihatdan takomillashganiga guvoh bo'lamiz:

1. Shakliy-struktural evolyutsiya jarayonida ba'zan bir komponentli maqollar ikki yoki uch komponentga aylansa, ba'zan ikki komponentli maqollar ixchamlashib, bir komponentga aylanib qoladi[7.42.]. Masalan, XI asrda qo'llangan ikki tarkibli "Aš tatïgi tuz, yuğrïn yemäs" maqoli aslan ikki komponentli bo'lib, ikkinchi tarkibi Alisher Navoiy davriga kelib qo'llanmay qolgan. Yoki shoir aytmoqchi bo'lgan fikr uchun maqolning birinchi, ya'ni "Oshning ta'mi tuz bilan" qismining o'zi yetarli bo'lgan. Shundan so'ng maqol bir komponentli tarzda qo'llana boshlangan. Binobarin, badiiy ijodda ixcham shakl asosida katta ma'naviy ozuqa berishga ko'p e'tibor beriladi. Shu bois ham maqol xalq orasida bir tarkibli shaklga

kelib qolgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari maqol tarkibidagi so'zlar va qofiyasida ham qator o'zgarishlarni kuzatish mumkin[8.34.].

Alisher Navoiy mazkur maqolga "Mahbub ul-qulub" asarining 113-tanbehida murojaat qilgan. Shoir tanbehda odamning qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr bildirish uchun xalq maqollariga hamohang qator aforizmlar yaratgan. Vaqt o'tishi bilan ushbu tanbehlar yana maqollar safidan o'rin olgan va qadimgi shakli ikki qismga aylangan, biroq ikkinchi qismi Alisher Navoiy hikmatining ta'siri va mazmuniga tayangan:

"Dardlig' ko'ngil – shu'lalig' charog', yoshlig' ko'z – suvluq bulog'. Teva qushin yuklab ko'chsa bo'lmas va chodir qanotin ochib uchsa bo'lmas. O't ishi qovurmoq, yel ishi sovurmoq. Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshilig'i so'z bila. Sihat tilasang, ko'p yema, izzat tilasang, ko'p dema. Yaxshi libos – tang'a oroyish, yaxshi qo'ldosh – jong'a osoyish" (5.XIV.121.) Ko'rinadiki, maqollarning shakliy strukturasi o'zgarishi va variantlashuviga yozma adabiyotning ta'siri katta. Buni quyidagi maqollar misolida ham kuzatish mumkin: "Oshning ta'mi tuz bilan, odamning ta'mi so'z bilan", "Oshning ta'mi tuz bilan, suvning ta'mi muz bilan". Demak, maqollar evolyutsion jarayonda doimiy shakliy-struktural o'zgarishga uchrab turadi. "Devonu lug'at-t-turk"dagi ko'p maqollar hozirgi varianti bilan qiyoslanganda ham bu aniq ko'rinadi: "Keñäšlig bilig ügräšür, keüäšsiz bilig opräšür" – (Maslahatli ish mustahkamlashadi, maslahatsiz ish buziladi). Kengashli ish buzilmas. Quruğ yığç egilmäš, quriš kiriš tügülmäs – (Quruq yog'och egilmaydi, qurigan novda bog'lanmay tugilmaydi)[1.91.] – Quruq yog'och egilmas.

2. Ma'naviy-badiiy evolyutsiya. Bunda muayyan davrda bir ma'noda qo'llangan ixcham shaklli maqol, keyingi davr manbalarida turli ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, "Közdän yirasa, köñüldän yemä yirar". Mazkur maqol "Devonu lug'ati-t-turk"da "Do'stlar ko'zdan uzoqlashsa, ko'ngildan ham uzoq bo'ladi"[2.377.] mazmunini anglatgan. Mazkur maqol keyingi davr shoirlari ijodida poetik jihatdan nihoyatda keng mazmunda qo'llangan. Chunonchi, XV asrning malik ul-kalomi Mavlono Lutfiy g'azalida bu maqol shunday ifodalangan:

Dilbar sog'inmag'on jihati bu ermish,

"Ko'zdin yiroq bo'lsa, ko'nguldin yiroq" ermish[4.18.].

XV asrda bu maqol "yaqin kishilar bir-birini doimiy yo'qlab turmasa, oradagi oqibat uziladi" ma'nosida qo'llangan bo'lsa, so'z sultoni Lutfiy g'azalida maqolning yangicha ma'nosi kashf etiladi. Ya'ni lirik qahramon – oshiqning iztirobi, ishq va hijron azobiga taskin o'laroq qo'llanadi. Alisher Navoiy bu maqol mazmunini yana bir pog'ona ko'taradi va mazkur maqolni bir necha shaklda qo'llab, g'azallarning badiiy quvvatini oshiradi:

Yuzungkim tozaroqdur bargi guldin,

Uchar ko'zdin vale chiqmas ko'nguldin [5.VI.299.].

Bu baytni o'qishi bilan o'quvchi xotiriga xalqning "Ko'zdan nari – ko'ngildan nari" maqoli keladi, biroq shoir maqolni aynan qo'llamaydi. Uning shaklini o'zgartirish orqali maqol mazmuniga zid bo'lgan teskari qo'llash usulidan foydalangan. Ya'ni yorning yuzi shu qadar go'zal, hatto gul bargidan ham tozaroqki, uni bir ko'rgan oshiqning ko'ngildan joy olgan. Ishq shu qadar kuchliki, xalq aytganidek "Ko'zdan uzoq bo'lsa ham, ko'ngildan uzoq"lashmagan. Ya'ni yorning vasli ko'z o'ngida bo'lmasa ham ko'ngildan umrbod joy olgan, oshiq endi shu ishq, shu vasl umidi bilan yashaydi.

Yoki boshqa bir baytda mazkur maqolga yana o'zgacharoq yondashadi:

Garchi to'kti qon ko'zum sensiz hamon ko'nglum hamon,

Ne ko'nguldin bir zamon chiqting, ne ko'zdin bir zamon [5.V.259].

Yana bir baytda maqolning mazmunini yanada bo'rttirib, shunday tasvir yaratadi:

Safarda, vahki, mendin ayru bir g'oyib musofirdur,

Ki, ko'zdin garchi g'oyibdur, vale ko'nglumda hozirdur [5.V.259.].

Bunda ham shoir "Ko'zdan yiroq, ko'ngildan yiroq"qa teskari mazmun kiritadi. Aslida bu oshiqning ishqdagi darajasini belgilaydi. Chin oshiq o'ngda, so'lda, oldinda, ortda –hamma joyda; ko'z ochsa ham, yumsa ham yorni ko'radi. Yor yodi oshiqning nafasiga aylanadi. Shunda oshiq shoir lirik qahramonidek "ko'zimdan g'oyib, biroq ko'nglimda hozir"lik maqomiga yetgan bo'ladi.

Maqollar bunday badiiy qayta ishlanma natijasida xalq orasida bir nechta variantga ega bo'ladi va sharoit taqozosiga ko'ra nutqda ulardan biri qo'llanadi. Shunga ko'ra, "Devonu lug'ati-t-turk"dagi "Közdän yirasa, köñüldän yemä yirar" maqolining bugun "Ko'zdan uzoq – dildan nari", "Ko'zdan nari – ko'ngildan nari", "Ko'zdan tushgan tildan ham tushar", "Ko'z ko'rmasa, ko'ngil sevmas", "Ko'z – ko'ngil darchasi", "Ko'z ko'zga tushsa, mehr qo'zg'alar" kabi variantlari hosil bo'lgan deyish mumkin.

Alisher Navoiy o'z g'azallarida xalq maqollaridan fikrni tasdiqlovchi vosita sifatida foydalanadi va irsoli masal san'ati asosida g'azallarining badiiyatini oshirish bilan birga xalqona falsafaning chuqur mazmuniga tayanadi. Masalan, Mahmud Koshg'ariy tomonidan yozib olingan: "Ot tesä, ağiz küymäs"[3.78.] maqolidan shoir bir g'azalida shunday foydalanadi:

Derlarki: "Og'iz o't desa kuymas" vale bu oh,

Chun sabt bo'lsa xomau daftarni kuydurur (5.II.169.).

Maqol bugungi kunda xalq orasida "Olov degan bilan og'iz kuymas" tarzida qo'lanib, vaqt o'tishi bilan ham lug'aviy, ham struktur, ham grammatik

evolyutsiyaga erishgan. Uning mazmunida ham bir qadar o‘zgarish seziladi. Tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariy fikricha, bu maqol: “so‘zlashdan tortinganlarga nisbatan qo‘llangan”, biroq Alisher Navoiy g‘azalida bu maqol yangicha ma’no ifodalagan. Bu esa maqolning ma’noviy evolyutsiyasini tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy xalq maqollaridan o‘rni bilan yirik hajmli asarlarida ham unumli foydalangan va badiiy timsol yaratishda xalqning ixcham, biroq chuqur mazmunli qatralariga hamda sodda tafakkuriga tayangan. Jumladan, shoir “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning Shirin hajrida toshlarga boshini urishini qadimgi turkiy tilda qo‘llangan: “*Tabug‘ tash japap, tash bashig‘ japap* — xizmat toshni yoradi, ammo tosh boshni yoradi”[2.66.] maqoli mazmunidan foydalanish orqali ham asar badiiyatini oshirgan:

Usholdi tosh birla ul qotiq bosh,

Masaldurkim, “ushotur boshni tosh” [5.VIII.320.].

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq maqollari uni yaratgan xalq kabi qadimiy va hikmatga boydir. ular vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, takomillashib, ixchamlashib boravergan. Ularning evolyutsion tadrijida o‘zbek mumtoz adabiyoti nihoyatda muhim o‘rin egallaydi. Ijodkorlarning xalq maqollaridan ijodiy foydalanishi hamda o‘zlari ham shu ohangga mos hikmatlar bitishi xalq maqollarining yangidan-yangi variantlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgandir. Ayniqsa, o‘zbek adabiyotining muazzam ustuni Mir Alisher Navoiy va uning o‘lmas asarlari qatida jo bo‘lgan xalq maqollari, o‘zbek xalq maqollarining evolyutsiyasini tadqiq etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. – Тошкент. Адабиёт ва санъат, 2017.
2. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. Уч томлик, III том. – Тошкент: Фан, 1963.
3. Кошғарий М. Девону луғот т-турк. Уч томлик, I том. – Тошкент: Фан, 1960.
4. Лутфий. Ғазаллар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1958. – Б.
5. Навоий А. Ғаройиб ус сиғар, 179-ғазал. – Тошкент: “Фан”, 1987.
6. Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981.
7. Соатов Б. Мақолларда структурал барқарорлик ва семантик эволюцияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989. 2-сон.
8. Шарафиддинов Х. Мақол қофиясининг эволюцияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994. 3-сон.